

Xurramov Anvar Vafokulovich,
A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat
milliy instituti, mustaqil izlanuvchi
anvarxurramov84@gmail.com

KASBIY MAS'ULIYAT – UMUMTA'LIM MUASSASALARI RAHBAR XODIMLARINING BOSHQARUVCHANLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRUVCHI VOSITASI SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada umumta'lim muassasalari rahbar xodimlarining boshqaruvchanlik qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirishda kasbiy mas'uliyatning roli ilmiy asosda o'rganildi. Unda rahbarning kasbiy mas'uliyat darajasi uning rahbarlik faoliyatining samaradorligi, qaror qabul qilishdagi aniqligi, pedagogik jamoani boshqarishdagi qobiliyati bilan chambarchas bog'liqligi aniqlangan. Maqolada kasbiy mas'uliyat tushunchasi, uning tarkibiy elementlari va rahbar faoliyatiga ta'siri tahlil qilinib, umumta'lim muassasalari sharoitida boshqaruv jarayonini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: kasbiy mas'uliyat, rahbar xodim, boshqaruvchanlik qobiliyati, umumta'lim muassasasi, rahbarlik faoliyati.

ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ СПОСОБНОСТЕЙ РУКОВОДЯЩИХ РАБОТНИКОВ ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ

Аннотация. В данной статье на научной основе исследуется роль профессиональной ответственности в формировании и развитии управленческих способностей руководителей общеобразовательных учреждений. Установлено, что уровень профессиональной ответственности руководителя тесно связан с эффективностью его управленческой деятельности, точностью принимаемых решений и способностью организовывать и координировать работу педагогического коллектива. В работе раскрывается сущность понятия профессиональной ответственности, анализируются её структурные компоненты и влияние на деятельность руководителя. На основе проведённого анализа разработаны научно-практические рекомендации по совершенствованию управленческого процесса в условиях общеобразовательных учреждений.

Ключевые слова: профессиональная ответственность, руководящий работник, управленческие способности, общеобразовательное учреждение, управленческая деятельность.

PROFESSIONAL RESPONSIBILITY AS A TOOL FOR DEVELOPING THE MANAGERIAL COMPETENCE OF LEADERS IN GENERAL EDUCATION INSTITUTIONS

Abstract. This article examines, on a scientific basis, the role of professional responsibility in the formation and development of managerial competence of leaders in general education institutions. It is determined that the level of a leader's professional responsibility is closely associated with the effectiveness of managerial activity, the accuracy of decision-making, and the ability to manage and coordinate the work of the pedagogical staff. The paper reveals the essence of the concept of professional responsibility, analyzes its structural components and their influence on leadership practice. Based on the analysis, scientific and practical recommendations are proposed for improving the management process in general education institutions.

Keywords: professional responsibility, educational leader, managerial competence, general education institution, leadership activity.

Mas'uliyat tushunchasining nazariy asoslari falsafa, psixologiya, sotsiologiya, pedagogika va huquqshunoslik kabi turli ilmiy sohalarning kesishishida shakllangan. Har bir fan

“mas’uliyat”ning ta’riflanishiga o’ziga xos qarash va yondashuvlarni taklif qiladi. Mas’uliyat inson va jamiyat faoliyatining deyarli barcha sohalarida muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ilmiy doirada uni tizimli va kompleks yondashuv bilan o’rganishga, ya’ni shaxsning hayotiy faoliyatining asosiy yo’nalishlarini qamrab oladigan va to’g’ridan to’g’ri shaxs mas’uliyatiga bog’liq jihatlarni tadqiq qilishga hali yetarlicha e’tibor qaratilmagan.

Mas’uliyat – bu murakkab, ko’p qirrali va ko’p komponentli integrativ xususiyat bo’lib, uni faqat ayrim jihatlari orqali tushuntirish yetarli emas. U shaxsning individual xususiyatlari va shaxsiy determinantlari bilan chambarchas bog’liq bo’lib, har bir insonda o’ziga xos tarzda namoyon bo’ladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mas’uliyat kishining hayotiy faoliyatida subyekt sifatida o’z aksini topadi, uning ma’lum sohalarida va vaziyatlarda samarali harakat qilishini ta’minlaydi hamda hayot yo’lini shakllantirishga xizmat qiladi. Boshqaruvda kasbiy mas’uliyatni rivojlantirish uchun dastlab ushbu tushunchaning mazmun-mohiyatini anglash zarur.

Mas’uliyatning mohiyati keng tushuncha sifatida talqin qilinadi. Falsafiy adabiyotlarda mas’uliyat — bu axloq va huquq kategoriyasi, shaxsning jamiyatga nisbatan o’ziga xos ijtimoiy va axloqiy-huquqiy munosabatini ifodalaydi, bu esa shaxsning o’z axloqiy burchi va huquqiy normalarga rioya qilishiga bog’liq. Masalan, Demokrit¹¹ (miloddan avvalgi 460–370 yillar) mas’uliyatni kategorik nuqtai nazardan shunday ta’riflaydi: inson o’z harakatlari uchun bevosita javobgar emas, balki u tashqi sharoitlar va atrof-muhit ta’sirida harakat qiladi. Shu nuqtai nazardan, u mas’uliyatni ichki insoniy xususiyat sifatida emas, balki shaxsning ijtimoiy xatti-harakatlari natijasi sifatida qaraydi. Uning fikricha, mas’uliyat tushunchasi insonning irodasi bilan bevosita bog’liq emas, balki u madaniyat, ijtimoiy tartib, kelishuv va hukm natijalariga asoslangan tushuncha hisoblanadi. Shu bilan birga, mas’uliyat – bu inson faoliyatining ijtimoiy va axloqiy jihatlarni tartibga soluvchi, shaxsiy va kollektiv xatti-harakatlar bilan chambarchas bog’liq kontsepsiya sifatida namoyon bo’ladi. Shu tariqa, mas’uliyat tushunchasi odatda axloqiy, huquqiy, diniy va ijtimoiy me’yorlar asosida shakllangan bo’lib, inson faoliyatini tartibga soluvchi normativ va qoidaviy mexanizmlarni o’z ichiga oladi.

Tarixiy tahlil shuni ko’rsatadiki, bu tushuncha insoniyat uchun yangi emas, balki doimiy mavjud bo’lgan, ammo har doim ham aniq va bir xil belgilangan bo’lmagan. Shu sababli, mas’uliyatni aniqlash va shakllantirish jarayonida turli yondashuvlar va tushuntirishlar paydo bo’lgan.

Suqrot¹² (miloddan avvalgi 470–399 yillar) mas’uliyat tushunchasini axloqiy xususiyatlarga va insonning yaxshilik va adolatga oid xatti-harakatlariga bog’laydi. U mas’uliyatni insonning ongli xatti-harakatlari, qarorlari, intilishlari va motivalari bilan uzviy bog’liq bo’lgan tushuncha sifatida ko’radi. Shu bilan birga, Suqrot birinchi navbatda odamning ichki dunyosiga – qalbi, ruhiy holati, ong va intilishlariga e’tibor qaratadi. U ta’kidlaydiki, insoniy mas’uliyat hech qachon tashqi vositalar, normativ qoidalar yoki hukm orqali sun’iy tarzda shakllantirilmaydi.

Suqrotning tushuntirishicha, inson o’z xatti-harakatlari uchun mas’uliyatni faqat ichki ong va axloqiy qarorlar orqali anglaydi. Shu nuqtai nazardan, insoniy mas’uliyatni shakllantirishda axloqiy qadriyatlar, adolat va ongli harakatlar markaziy ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, mas’uliyat kontsepsiyasi insonning ijtimoiy va axloqiy majburiyatlari bilan uzviy bog’liq bo’ladi.

Mas’uliyat tushunchasi falsafiy diskursda aniq va chuqur tarzda tadqiq etilgan. Immanuel Kant (1724–1804) mas’uliyatni insonning ichki qonun va axloqiy majburiyatlariga rioya qilish orqali o’zini mustaqil va erkin subyekt sifatida namoyon qilishi sifatida ko’rgan. Kantning falsafiy konsepsiyasida “ichki qonun” asosiy ahamiyatga ega bo’lib, u insonning axloqiy qarorlarini, shaxsiy iroda va ma’naviy tanlovini belgilaydi. Uning asosiy axloqiy qonuni shuni ta’kidlaydiki: “... erkinlik ichki ovoz orqali insonning irodasida namoyon bo’ladigan ijtimoiy sud bilan uyg’unlashgan bo’lsa, inson erkinlikni Xudo oldidagi mas’uliyat prinsipi sifatida tan oladi; axloqiy erkinlik esa butun ma’naviy qonun bilan birlashadi”¹³. Shu nuqtai nazardan, Kantning falsafasida erkinlik – axloqiy mas’uliyatning subyektiv prinsipi bo’lib, uning obyektiv mohiyati esa insonlarni bir-birlariga hurmat bilan bog’lashga, ularning erkinligini cheklamasdan, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

11 Кремен В.Г., Ильин В.В. Философия: мыслители, идеи, тексты. — К.: Книга, 2005. — 528 с.

12 Митрошенкова О.А. Философия: Учебное пособие. – М.: Гардарики, 2002. – 655 с.

13 Кант Е. Критика чистого разума / Е. Кант. – М.: Мысль, 1994. – 591 с.

F.Gegel¹⁴ (1770–1831) axloqiy mas'uliyatni insoniyat va jamiyat tarixiy rivojlanishi kontekstida tahlil qilgan. Uning nuqtai nazarida mas'uliyat – bu insonning ijtimoiy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirishning markaziy vositasi bo'lib, u insonning jamiyatdagi rolini, xatti-harakatlari va qarorlarini uzviy ravishda shakllantiradi. Gegel shuningdek mas'uliyatni jamiyat va davlat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik orqali izohlaydi. Shu tarzda, insonning ma'naviy o'sishi va ijtimoiy faoliyati mas'uliyat printsipli bilan chambarchas bog'liqdir.

Tadqiqotchilar V.Kanke¹⁵, G.Yonas¹⁶ va boshqalarning ta'kidlashicha "mas'uliyat" atamasi birinchi marta XV asrning ikkinchi yarmida huquqshunoslik sohasida yuzaga kelgan va majburiyat ma'nosida talqin qilingan.

M.O.Berdyayev¹⁷ (1874–1948) mas'uliyatni insonning ijtimoiy va axloqiy hayotidagi markaziy kategoriya sifatida tahlil qilgan. U shaxsiy mas'uliyatni insonning erkin iroda orqali amalga oshiradigan faoliyati bilan uzviy bog'lagan va bu jarayonda inson o'zining ma'naviy qobiliyatlarini, irodasi va axloqiy tanlovlarini namoyon qiladi. Berdyayev nazariyasida mas'uliyat – bu nafaqat shaxsiy irodani, balki ijtimoiy va axloqiy tartibni shakllantiruvchi kuchdir. U shuni ta'kidlaydiki, inson mas'uliyatni anglash orqali o'zining erkinligini namoyon qiladi, shu bilan birga boshqalar hayotiga hurmat bilan yondashadi va ijtimoiy adolatni ta'minlaydi.

Psixologik nuqtayi nazardan esa mas'uliyat shaxs xususiyatlaridan biri sifatida o'rganiladi. U shaxsning yo'nalishlar strukturasi kiradi va insonning faoliyati hamda haqiqatga bo'lgan munosabatini belgilaydi. Yetuk shaxsiyatga xos mas'uliyat – bu o'zini-o'zi boshqaradigan, ixtiyoriy va ma'noli faoliyat mexanizmi sifatida namoyon bo'ladi.

D.A.Leontev¹⁸ning fikricha shaxsning psixik tashkiliy birligi nuqtai nazaridan mas'uliyat uning integratsiyalashgan xususiyati sifatida yadroviy strukturaning markazi bo'lib, subyektning ongli faoliyatini boshqaruvchi asosiy regulyator hisoblanadi.

Umumta'lim muassasalari rahbar xodimlarining boshqaruvchanlik qobiliyati ularning kasbiy mas'uliyat darajasi bilan bevosita bog'liq. Kasbiy mas'uliyat rahbarning qaror qabul qilish jarayonidagi aniqligi, pedagogik jamoani samarali boshqarish, maktabning ichki va tashqi muhitida muvozanatni saqlash kabi ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, rahbarning professional o'sishida kasbiy mas'uliyatni doimiy ravishda oshirib borish, uning boshqaruv faoliyatini tizimli va strategik jihatdan takomillashtirishga imkon yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Кремен В.Г., Ильин В.В. Философия: мыслители, идеи, тексты. — К.: Книга, 2005. — 528 с.
2. Митрошенкова О.А. Философия: Учебное пособие. – М.: Гардарики, 2002. – 655 с.
3. Кант Е. Критика чистого разума / Е. Кант. – М.: Мысль, 1994. – 591 с.
4. Гегель Г. Работы разных лет: В 2-х т. / Г.-В.-Ф. Гегель. – М.: Наука, 1971. – Т. 2. – 1300 с.
5. Канке В. А. Основные философские направления и концепции науки. Итоги XX столетия : учебное пособие / В. А. Канке. – М. : Логос, 2000. – 320 с.
6. Йонас Г. Принцип ответственности. Опыт этики для технологической цивилизации / Перевод с нем., предисловие, примечания И. И. Маханькова. – М.: Айрис-пресс, 2004. – 480 с.
7. Бердяев, Н.А. Творчество и объективизация / Н.А. Бердяев; сост. А.Г. Шиманского, Ю.О. Шиманской. – Мн.: Экономпресс, 2000. – 304 с.
8. Леонтьев А. Н. Избранные психологические произведения : в 2-х т. / Алексей Николаевич Леонтьев. – М. : Педагогика, 1983. – Т. I. – 392 с.

14 Гегель Г. Работы разных лет: В 2-х т. / Г.-В.-Ф. Гегель. – М.: Наука, 1971. – Т. 2. – 1300 с.

15 Канке В. А. Основные философские направления и концепции науки. Итоги XX столетия : учебное пособие / В. А. Канке. – М. : Логос, 2000. – 320 с.

16 Йонас Г. Принцип ответственности. Опыт этики для технологической цивилизации / Перевод с нем., предисловие, примечания И. И. Маханькова. – М.: Айрис-пресс, 2004. – 480 с.

17 Бердяев, Н.А. Творчество и объективизация / Н.А. Бердяев; сост. А.Г. Шиманского, Ю.О. Шиманской. – Мн.: Экономпресс, 2000. – 304 с.

18 Леонтьев А. Н. Избранные психологические произведения : в 2-х т. / Алексей Николаевич Леонтьев. – М. : Педагогика, 1983. – Т. I. – 392 с.